



TARIX FANI O'QITUVCHILARINI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA TESTOLOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING BA'ZI JIHATLARI

Xamidova Rislig'oy Faraxadovna
Andijon davlat pedagogika instituti, "Tarix" kafedrası o'qituvchisi
e-mail.ru hamidovarisligoy@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17615010>

ARTICLE INFO

Received: 1st November 2025
Accepted: 2nd November 2025
Published: 15th November 2025

KEYWORDS

testologiya, testologik
faoliyat, tarix o'qituvchisi,
pedagogik diagnostika, baholash,
xorijiy tajriba, kompetensiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida testologik kompetensiyalarning ahamiyati yoritilgan, tarix fani o'qituvchilarini testologik faoliyatga tayyorlashning asosiy omillari xorijiy tajribalar asosida tahlil qilingan. AQSh, Finlyandiya, Singapur, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarning testlash va baholash sohasidagi yutuqlari va amaliyotlari qiyosiy tahlilga tortilgan. Tadqiqot natijalarida milliy ta'lim tizimimizga mos keladigan, tarix o'qituvchilarining testologik madaniyatini oshirishga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda ta'limning rivojlanishi bilan bir qatorda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini ob'ektiv baholash muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Tarix fani – bu nafaqat faktlar va sanalarni, balki ularni tahlil qilish, qiyosiy tahlil olib borish, hodisalarni sabab-oqibat bog'liqligida tushunish kabi murakkab ko'nikmalarni talab etadigan fan. Shu bois, tarixdan olingan bilimlarni baholash ham an'anaviy og'zaki yoki yozma usullardan tashqari, zamonaviy testologik usullarni ham talab qiladi.

Testologik faoliyat – bu pedagogik diagnostikaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, test materiallarini yaratish, ularni sinovdan o'tkazish, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Tarix o'qituvchisining bu sohadagi yetarli darajada malakaga ega bo'lmasa, o'quvchilarning haqiqiy bilim darajasi va mustaqil fikrlash qobiliyati to'g'risida obyektiv tasavvurga ega bo'lish qiyin. Jahonning rivojlangan mamlakatlari o'qituvchilarni testologik faoliyatga tayyorlash bo'yicha boy tajribaga ega. Ushbu maqolaning maqsadi – ushbu xorijiy tajribalarni o'rganish va ular asosida tarix fani o'qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash samaradorligini oshirish omillarini aniqlashdir.

Tarix fani o'qituvchisi uchun testologik faoliyat nafaqat "test yechishni" o'rgatish, balki quyidagilarni amalga oshirishni anglatadi:

Turli darajadagi savollarni ishlab chiqish: Aniq faktologik bilimlarni (sanalar, shaxslar, hodisalar) tekshiradigan savollardan tortib, tahlil qilish, sintez qilish va baholash kabi yuqori darajali fikrlash ko'nikmalarini o'lchaydigan ochiq savollar va vaziyatli topshiriqlargacha.

Testlarning psixometrik xususiyatlarini tushunish: Testning ishonchligi, yaroqliligi, diskriminativligi kabi tushunchalar bilan ishlash.

Natijalarni tahlil qilish va xato tahlilini olib borish: O'quvchilarning ma'lum bir mavzudagi zaif tomonlarini aniqlandi va ular asosida individual ishlash yo'nalishlarini belgilash.

Xorijiy mamlakatlarning tajribasini tahlil qilgan holda, quyidagi asosiy omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

AQSh tajribasi: Amerikada Educational Testing Service (ETS) kabi nodavlat, mustaqil tashkilotlar dunyoga mashhur SAT, GRE kabi testlarni ishlab chiqadi va o'tkazadi. Bu tashkilotlar o'z ishida ilg'or psixometriya va statistika usullaridan foydalanadi. Tarix

o'qituvchilari ushbu markazlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar va qo'llanmalar asosida o'quv jarayonida foydalanish uchun testlar yaratishni o'rganadilar.

Buyuk Britaniya tajribasi: Britaniyada ham Ofqual (Office of Qualifications and Examinations Regulation) kabi mustaqil regulyator organlar milliy standartlarni nazorat qiladi va baholash sifatini ta'minlaydi.

Finlandiya tajribasi: Finlandiya ta'lim tizimida o'qituvchilar yuqori ijtimoiy ahvolga ega bo'lib, ularning kasbiy rivojlanishi doimiy davom etadi. Malaka oshirish kurslarida "formativ baholash" (o'quv jarayonida davomiy baholash)ga alohida urg'u beriladi. Tarix o'qituvchilari o'quvchilarning muhokama qilish, hujjatli tahlil qilish qobiliyatini qanday kuzatish va baholash bo'yicha treninglar oladilar.

Singapur tajribasi: Singapurda o'qituvchilar har yili majburiy malaka oshirish kurslaridan o'tadilar, ularda zamonaviy baholash usullari, shu jumladan raqamli testlash platformalari bilan ishlash bo'yicha darslar muhim o'rin tutadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi: Ko'plab Yevropa universitetlarida (masalan, Niderlandiya, Germaniya) kelajak o'qituvchilar "Pedagogik o'lchovlar va baholash", "Test nazariyasi" kabi majburiy fanlarni o'rganadilar. Bu fanlar nafaqat test yasash texnikasini, balki testning falsafiy va psixologik asoslarini ham o'z ichiga oladi.

Janubiy Koreya va Estoniya tajribasi: Ushbu mamlakatlarda testlash va baholash jarayonlari keng qamrovli raqamlashtirilgan. Adaptive testing (moslashuvchan testlash) tizimlari har bir o'quvchining darajasiga mos savollarni avtomatik ravishda tanlab beradi. Tarix o'qituvchilari ushbu tizimlardan foydalanish, ularning ma'lumotlar bazasini tahlil qilish va natijalarga ko'ra individual o'quv trajektoriyalarini yaratish bo'yicha tayyorgarlik ko'radilar.

Xorijiy mamlakatlarda an'anaviy testlar bilan bir qatorda, quyidagi usullar keng qo'llaniladi:

Portfolio (ishlar to'plami): O'quvchining muayyan davr mobaynida bajargan tadqiqot ishlari, hujjatli tahlillari, insholarini to'plash va baholash.

Loyiha asosidagi baholash: O'quvchilarning guruh bo'lib tarixiy loyihalarni amalga oshirishi va ularning natijalarini himoya qilishi.

O'zini-o'zi baholash va tengdoshlar tomonidan baholash.

Xorijiy tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tarix fani o'qituvchilarini samarali testologik faoliyatga tayyorlash – bu bir omilli emas, balki tizimli va ko'p qirrali jarayondir. U quyidagi omillarning muvofiqlashtirilgan ta'siriga bog'liq:

1. Qonunchilik omili: Mustaqil, ishonchli milliy testlash va baholash markazlarini yaratish.
2. Tayyorgarlik omili: Oliy pedagogik ta'lim muassasalarining dasturlariga "Testologiya" va "Pedagogik o'lchovlar" fanlarini majburiy sifatida kiritish.
3. Malakani oshirish omili: O'qituvchilar uchun doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ularda nafaqat nazariy, balki amaliy mashg'ulotlarga (test yasash, tahlil qilish) alohida urg'u berish.
4. Texnologik omil: Zamonaviy raqamli testlash platformalarini joriy etish va o'qituvchilarni ular bilan ishlashga o'rgatish.
5. Metodik omil: Tarix faniga xos bo'lgan, faqat yopiq savollarga emas, balki ochiq turdagi, kreativ va tahliliy topshiriqlarga asoslangan test materiallarini ishlab chiqish metodikasini yaratish.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy ilg'or tajribalarni kreativ o'zlashtirish va milliy ta'limimizning an'analari va ehtiyojlariga moslashtirish yo'li bilan tarix o'qituvchilarining testologik madaniyatini sezilarli darajada oshirish, shu bilan birga o'quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish va obyektiv baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. В.С.Аванесов Композиция тестовых заданий. – М.: Центр тестирования, 2002.
2. В.И.Звонников, М.Б.Чельшкова. Современные средства оценивания результатов обучения: учебное пособие. – М.: Академия, 2007.

3. А.Н.Майоров Теория и практика создания тестов для системы образования. – М.: Интеллект-центр, 2002.
4. Black, P., & Wiliam, D. Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment. Phi Delta Kappan, 80(2), 139-148. 1998.

